

N. Uluqov

Sh. Abdurahmonov

**O`ZBEK
DIALEKTOLOGIYASIDAN
MALAKAVIY AMALIYOT**

(uslubiy qo'llanma)

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

**Uluqov Nosirjon
Abdurahmonov Shavkatjon**

**O'ZBEK DIALEKTOLOGIYASIDAN
MALAKAVIY AMALIYOT**

(uslubiy qo'llanma)

NAMANGAN – 2014

Qoʻllanmada dialektologik malakaviy amaliyotni oʻtkazish boʻyicha tavsiyalar, topshiriqlar, shuningdek, transkripsion va diakritik belgilardan foydalanish hamda dialektologik materiallarni toʻplash yuzasidan tavsiyalar berilgan.

Tuzuvchilar:

Nosirjon Uluqov,
filologiya fanlari doktori

Shavkatjon Abdurahmonov,
filologiya fanlari nomzodi

Taqrizchilar:

Usmonova Huriniso,
filologiya fanlari doktori

Dilora Nabiyeva,
filologiya fanlari doktori

Uslubiy qoʻllanma NamDU oʻquv-uslubiy kengashining 2014-yil 12-martdagi 6-sonli bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

KIRISH

Amaliyotlar bakalavriat o'zbek tili ta'lim dasturining majburiy bo'lagi hisoblanadi. Amaliyotlar o'quv yoki o'quv-ishlab chiqarish mashg'ulotlari ko'rinishida bo'ladi. Bakalavriat bosqichida to'rtta amaliyot: folklor, dialektologik, nashriyot hamda bosmaxonalarda malakaviy va pedagogik amaliyot rejalashtirilgan.

Malakaviy amaliyot o'tkazishdan maqsad – talabalarning nazariy bilimlarini mustahkamlash, kasb ko'nikmalarini takomillashtirish, mutaxassislik mahoratini oshirish va ularni mehnat hamda ijtimoiy faoliyatga jalb qilishdan iborat.

O'zbek tili va adabiyoti o'quv rejasiga asosan o'zbek tili yo'nalishida dialektologiya fani bo'yicha 72 soatlik malakaviy amaliyot rejalashtirilgan. Mazkur malakaviy amaliyot talabalarning "Dialektologiya" fani bo'yicha olgan nazariy bilimlarini mustahkam-lashga, nazariya bilan amaliyotni uzviy bog'lashga, buning natijasida ta'lim samaradorligini oshirishga, talabalarda mustaqil ishlash malakalarini hosil qilishga, ilmiy yo'nalishga amaliy yordam beradi va asos bo'ladi.

Dialektologik malakaviy amaliyot davomida DTS talablariga ko'ra ayrim mahalliy sheva, dialekt va shevalar guruhi ekspeditsiya tashkil etish yo'li bilan o'rganiladi. Dialektlar materiallari transkripsiya bilan yozib olish, tarixiy, tasviriy, qiyosiy tekshirishlar, kuzatishlar asosida o'rganiladi. Materiallarni to'plashda savol-javob usulidan keng foydalaniladi. Oldindan rejalashtirilgan maxsus dialektologik dasturlar asosida kuzatish, o'rganish ob'ektlari tanlanadi va sheva vakillari bilan suhbatlar o'tkaziladi hamda to'plangan dialektologik materiallar hujjatlashtiriladi, ya'ni o'rganilgan hududning dialektologik pasporti yaratiladi.

Dialektologik malakaviy amaliyotning asosiy maqsad va vazifalari

Shevalardan yig'ilgan materiallar har tomonlama ahamiyatlidir. Chunki bu boradi to'plangan faktlar o'zbek tili tarixining ayrim tomonlarini oydinlashtirish bilan birga, tarixiy fanlar uchun ham muhim manbalar beradi. Ba'zi sheva materiallarida shunday faktlar uchraydiki, ular na tarixiy manbalarda, na tarixiy yodgorliklarda o'z ifodasini topgan. Shunday ekan, kundan-kunga adabiy til ta'sirida o'zgarishga uchrab, yo'qolib borayotgan o'zbek shevalarini zudlik bilan o'rganish va ma'lum xulosalar chiqarish har tomonlama ahamiyatlidir.

Shu kunga kelib respublikamizdagi ko'plab qishloq, tuman va shahar shevalari bo'yicha anchagina materiallar to'plangan. Lekin shunga qaramasdan hali ham kam o'rganilgan yoki umuman o'rganilmagan o'zbek shevalari ham mavjud. Bu borada esa dialektologik amaliyotlarning o'rni kattadir.

Shuningdek, ushbu dialektologik amaliyot talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash va mustahkamlash bilan birga, o'zbek shevalarini monografik o'rganishdek katta ishga o'z materiallari bilan oz bo'lsa-da, hissa qo'shishi mumkin.

Dialektologik amaliyotning ilmiy-amaliy tomonlari ham mavjuddir, ya'ni talabalar tomonidan yig'ilgan materiallar to'plam sifatida chiqarilishi, ilmiy ma'ruza, kurs ishi va keyingi kurslarda bitiruv-malakaviy ish sifatida berilishi mumkinki, bu talabalarning ilk ilmiy saviyasining shakllanishiga turtki bo'ladi.

Demak, dialektologik amaliyotda olingan nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash kabi bosh vazifa bilan birga quyidagi maqsadlar ham ko'zda tutiladi: ma'lum bir shevaning o'ziga xos barcha lingvistik xususiyatlari yuzasidan material to'plash; milliy tilga hurmat hissini o'yg'otish; talabalarda yozma, og'zaki nutq madaniyatini shakllantirish; xalq tarixi va uning hayoti bilan yaqindan tanishish; to'plagan materiallari o'zbek tilshunosligini boyitishga hissa qo'shishini his qilish; vatanga, xalqqa muhabbat hissini o'yg'otish; kuzatishlari natijasida ma'lum xulosalar qilish kabi ko'nikma va malakalarni hosil qilish. Bu ko'nikma va malakalar esa bo'lg'usi o'qituvchining shakllanishida asosiy omil ekanligi.

Dialektologik malakaviy amaliyot o'tkazishda universitet, dekanat hamda guruh rahbarlarining vazifalari:

- mazkur amaliyot bo'yicha talabalarni muayyan guruhlariga taqsimlash va ularga rahbarlarni tayinlash;
- talabalarga malakaviy amaliyot maqsadi va vazifasini tushuntirish;
- talabalarning amaliyot o'tash joylarini aniqlash va u yerga tegishli rasmiy xatlar bilan murojaat qilish;
- malakaviy amaliyot o'tkaziladigan hudud haqida talabalarga ma'lumot berish;
- amaliyot rahbarlariga o'z guruhlaridagi talabalarning faqat belgilagan joylarda amaliyot o'tkazishlari lozimligini uqtirish;
- amaliyotni borishini nazorat qilib borish;
- amaliyot oxirida har bir talabaning reyting daftarchasiga o'z vaqtida reyting baholarini qo'yilishini eslatish;
- amaliyoti yakunida har bir talaba o'tkazilgan amaliyot yuzasidan kundalik daftarini to'ldirib, rahbarlariga topshirishlari zarurligini uqtirish;
- har bir guruh rahbariga amaliyot haqidagi hisobotni joriy yilning iyuliga qadar o'quv bo'limiga topshirishlarini uqtirish;
- mazkur amaliyotga loqaydlik, mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lgan talabalarga tegishli choralar belgilash;
- amaliyot o'tkazilayotgan QFY, MFYlari rahbarlari bilan guruh rahbarlari o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtirib borish.

Dialektologik malakaviy amaliyotni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar

Dialektologik amaliyotga tayyorgarlik bosqichi

O'quv rejasiga asosan dialektologik amaliyot ikki haftaga rejalashtirilgan bo'lsa-da, unga tayyorgarlik ko'rish ancha oldindan boshlanadi. Amaliyotning samarali yakunlanishi uchun talabalar quyidagi tayyorgarlikka ega bo'lishi talab qilinadi:

1. Puxta nazariy bilimga ega bo'lishi.

2. Transkripsion yozuv sistemasini yaxshi o'zlashtirish va uni amaliyot davrida qo'llay bilish.

3. Shevani o'rganish uchun dastur va savolnomalarning mavjud bo'lishi. Ovoz yozib olish uchun texnika vositalarni tayyorlash.

4. O'rganilishi lozim bo'lgan hududlarning madaniy-iqtisodiy ahvoli, uning geografik o'rinishidan yetarli darajada xabardor bo'lish.

Talaba yuqoridagi talablarga tayyor bo'lganligiga ishonch hosil qilingach, amaliyotga tayyorgarlik ko'rishning keyingi bosqichi amalga oshiriladi.

Tayyorgarlikning ikkinchi bosqichida quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

1. Amaliyot rahbari tomonidan amaliyotda qatnashuvchi talabalarni to'plash va amaliyotning maqsad va vazifalari, uni o'tkazish tartiblari, guruhlar va kichik guruhlarda talabalarning soni, amaliyotda kerak bo'ladigan barcha narsalar haqida tushuncha berish.

2. Kafedra, dekanat bilan kelishilgan holda dialektologik amaliyotga bag'ishlangan tashkiliy konferensiya o'tkazish. Konferensiyada amaliyotning maqsadi, yo'nalishlari, o'tkazish tartiblari xususida fikrlashiladi.

3. Amaliyot rahbari tomonidan amaliyot o'tkazilishi lozim bo'lgan hududni, ya'ni tuman, qishloqlarni aniqlash.

4. Amaliyot rahbari tomonidan belgilangan tuman va qishloqlar aholisi qaysi lahja va shevada gaplashishi, talaba nimalarga e'tibor qaratishi haqida ko'rsatma beriladi.

5. Dialektologik amaliyot o'tkazilishi lozim bo'lgan tuman, qishloq rahbarlariga universitetning xatlarini tayyorlash.

6. Amaliyotga boruvchi talabalar va rahbarlarini buyuruq bilan rasmiylashtirish.

7. Manzilgacha boriladigan transport vositalarini aniqlash. Agar institut tomonidan transport bilan ta'minlanmasa, boshqa choralarni ko'rish va hujjatlarni rasmiylashtirish.

8. Amaliyotda qo'llanilishi lozim bo'lgan magnitafon va uning lentalari, fotoapparat va unga kerakli narsalarni tayyorlash.

Dialektologik amaliyotni tashkil qilish va o'tkazish

Dialektologik amaliyotning samaradorligi, tartibli o'tishi uning rejali tashkil qilinishiga har tomonlama bog'liqdir. Ushbu rejada dialektologik amaliyotning boshlanishidan yakunlanishigacha amalga oshirilishi lozim bo'lgan barcha ishlar o'z ifodasini topishi lozim.

Amaliyotning tashkiliy qismi rahbar zimmasiga ancha ma'suliyat yuklaydi, chunki talabalarni manzilga yetkazishda rahbar har tomonlama bosh-qosh bo'ladi. Belgilangan manzilga kelgach, guruh rahbari quyidagilarni amalga oshirishi shart:

1. Tuman ma'naviyat va ma'rifat bo'limi va xalq ta'limi bo'limiga kirib, tuman hududida dialektologik amaliyot o'tkazishini ma'lum qilish va universitetdan yuborilgan xatni topshirish.

2. Amaliyotni samarali o'tkazish uchun ma'naviy va amaliy yordam so'rash. Bu yordam quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

a) amaliyotni tartibli o'tkazishga maktab o'qituvchilarining yaqindan yordamini uyushtirish;

b) maktablardan talabalar uchun yotoq joylar ajratish;

d) maktab oshxonalaridan foydalanishga ruxsat berish;

e) mahalliy aholiga dialektologik amaliyotning mohiyatini tushuntirishda yordam berish;

f) qishloq fuqarolar yig'ini va mahalla qo'mitalariga xat tashkil qilish.

3. Guruh bilan umumiy yig'ilish o'tkazish. Bunda guruh rahbari bundan keyingi qilinadigan ishlar yuzasidan ko'rsatma beradi. Avvalo mahalliy sharoit va kishilar bilan qanday muloqotda bo'lish, materiallarni yig'ish usullarini yana bir bor tushuntiradi. Talabalar 4-5 kishidan iborat bo'lgan guruhlariga ajratiladi va boshliq tayinlanadi. Amaliyotda talabalarning kun tartibi belgilanadi. Chunki material beruvchilarning ko'pchiligi ish bilan band bo'lishi mumkin. Shunday hollarda ularning vaqtini inobatga olishga to'g'ri keladi. Shu sababli

talaba material olayotgan kishisi bilan kelishgan holda o'z kun tartibini belgilab olishi lozim.

4. Har bir guruhning yotish va ovqatlanish joyini belgilash. Agar hamma talabani bir joyga joylashtirish imkoniyati tug'lsa, ovqatlanish manbalarini tashkillashtirish.

5. Har bir guruhning tekshirish hududini konkret belgilab berish.

Shundan so'ng guruh va kichik guruh talabalari joy-joylariga tarqalishadi. Rahbar har bir guruhga borib, ularning sharoiti bilan tanishadi va ko'rsatmalar beradi.

Dialektologik amaliyotga rahbarlik

Dialektologik amaliyotga dekanat va kafedra bevosita rahbarlik qiladi. Malakaviy amaliyotining borishi amaliyot rahbari tomonidan nazorat qilib boriladi. Amaliyot yakunida rahbarlar kafedraga yozma hisobot topshiradi.

Amaliyotchi talabalarning vazifalari

Dialektologik amaliyotga chiqqan talabalar quyidagi vazifalarni amalga oshirishi lozim.

- amaliyotga kerakli barcha narsalarni tayyorlash;
- ichki tartib-intizomga qat'iy rioya qilish;
- kishilar o'rtasida kiyinish, o'zini tutish va muomalasi bilan namuna bo'lish;
- qilingan ishlarni izchil ravishda kundalikka qayd etib borish;
- rahbardan so'ramasdan biriktirilgan joyni tashlab ketmaslik;
- tuzilgan aniq reja asosida sheva materiallarini to'plash;
- belgilangan muddatlarda qilingan ishlar yuzasidan rahbarga axborot berib turish;
- amaliyot davrida bajarilgan barcha ishlar yuzasidan to'liq hisobot yozish.
- xavfsizlik qonun-qoidalariga rioya qilish;
- sanitariya-gigiena talablariga amal qilish;
- axborotchilar – mahalliy sheva vakillari bilan yaxshi munosabatda bo'lishlari.

Dialektologik amaliyot bo'yicha rahbar o'qituvchilarining burch va vazifalari

Dialektologik amaliyotda ishtirok etuvchi talabalar guruhlariga ajratiladi va buyruq bilan rahbar tayinlanadi. Rahbarlar kafedra va dekanat tomonidan tavsiya qilinadi. Amaliyotning barcha ma'suliyati rahbar zimmasiga yuklatiladi. Guruh rahbari amaliyotning boshidan oxirigacha talabalar bilan birga bo'ladi va quyidagilarga qat'iy amal qiladi:

- guruh bilan umumiy yig'ilish o'tkazish va amaliyotning mohiyatini tushuntirish;
- guruhni kichik guruhlariga ajratish va boshliqlar tayinlash;
- talabalar o'rganishi lozim bo'lgan hududni belgilash;
- talabalarning bajargan ishlarini muntazam tekshirib, tegishli ko'rsatmalar berib borish;
- amaliyotchilarga turarjoy topish va ularning ovqatlanishiga sharoit yaratib berish;
- amaliyotchilar bo'sh vaqtining mazmunli o'tishini ta'minlash;
- amaliyotchilarning ruxsatsiz joylarni tashlab ketishiga yo'l qo'ymaslik;
- talabalarning manzilga yetib borishini tashkillashtirish;
- mahalliy rahbarlar bilan uchrashib, muammolarni hal qilish;
- amaliyot davrida bajarilgan ishlar yuzasidan hisobot yozish va takliflarni berish;
- amaliyotchilar ishini baholash va qaydnomalarga garasmiylashtirish.

Malakaviy amaliyot bo'yicha talabalarni baholash mezonlari

86-100 ball – “a’lo”

71-85 ball – “yaxshi”

56-70 ball – “qoniqarli”

0-55 ball – “qoniqarsiz”

86-100 ball malakaviy amaliyotda faol qatnashgan, unumli foydalanib, ma'lumotlar to'plagan, qo'yilgan vazifalarni mukammal bajargan va o'z vaqtida hisobot hamda amaliyot kundaligini topshirgan talabaga qo'yiladi.

71-85 ball malakaviy amaliyoting ba'zi kunlariga uzrli sabablar bilan qatnasha olmagan, amaliyotga qatnashgan, mas'uliyatni sezib topshiriqlarni bajargan, amaliyot ma'lumotlar to'plagan, amaliyot hisoboti va kundaligini o'z vaqtida topshirgan talabaga qo'yiladi.

56-70 ball malakaviy amaliyotga uzrli yoki uzrsiz sabablar bilan to'la qatnasha olmagan, amaliyot o'tagan tashkilot ichki tartibini bajarishga e'tiborsizlik bilan qaragan, zaruriy ma'lumotlarni to'plashga yetarli e'tibor bermagan, amaliyot ko'zda tutgan vazifalarni to'la uddalay olmagan, dekanatga amaliyot kundaligi va hisobotini o'z vaqtida topshirgan talabaga qo'yiladi.

0-55 ball malakaviy amaliyotiga loqaydlik, mas'ulyatsizlik bilan munosabatda bo'lgan, buning natijasida amaliyot tadbirlariga umuman qatnashmagan yoki amaliyotga qatnashish paytida o'sha tashkilot ichki qonun-qoidalarini buzganligi uchun tashkilot ma'muriyati tomonidan ogohlantirilgan va amaliyot vazifalarini umuman bajarmagani haqida dekanatga amaliyot kundaligi va hisobotini topshirmagan talabaga qo'yiladi.

Dialektologik amaliyot yuzasidan talabalarning faoliyati o'zbek tili va adabiyoti kafedrasining 2014-yil 23-maydagi 5-son qaroriga asosan, quyidagi mezonlar boyicha 100 ball darajasida baholanadi.

1	Talabalarning amaliyotga ishtiroki va intizomi uchun	20 ball
2	Talabalarning amaliyot davrida to'plagan materiallari va ularning tahlili uchun	50 ball
3	Dialektologik amaliyot hujjatlarini rasmiylashtirishga	15 ball
4	Dialektologik amaliyot yuzasidan tayyorlangan hisobot uchun	15 ball

Jami: 100 ball

Eslatma. *Talaba dialektologik amaliyotdagi barcha faoliyati uchun 55 balдан kam to'plasa, "qoniqarsiz" baholanadi. Agar sababsiz amaliyotga qatnashmasa, kursdan-kursga ko'chirilmaydi va talabalar safidan chiqariladi.*

Dialektologik malakaviy amaliyotni yakunlash va hujjatlarni tayyorlash bo'yicha ilova hamda namunalar

Amaliyoti yakuni iyun oyi oxirida o'tkaziladi. Bunda yakuniy anjuman o'tkazilib, amaliyotning yutuq va kamchiliklari, taklif-mulohazalar tahlil qilinadi.

Talabalar to'plangan materiallarni tartibga solib, hisobot yozadi va barcha hujjatlarni kafedraga topshiradi. Kafedra mudiri barcha amaliyotlar yuzasidan amaliyot rahbari, o'quv bo'limi va dekanatga yozma axborot beradi.

Amaliyot yakunida talaba kafedraga
topshiradigan hujjatlar:

1. Amaliyot kundaligi.
2. Amaliyot yuzasidan hisobot.
3. To'plangan dialektologik materiallar.
4. O'rganilgan hududning dialektologik paspoiti.

Amaliyot kundalik daftarini yuritish va to'ldirish bo'yicha ko'satmalar

Kundalik daftar amaliyotni o'tash davrida talabaning asosiy hujjati hisoblanadi va uni yuritishda quyidagilarga amal qilinadi:

1. Oliy o'quv yurti joylashgan shahardan tashqarida amaliyot o'taydigan talaba uchun kundalik safar guvohnomasi hisoblanadi va talabaning qancha muddat amaliyot o'taganligini bildiradi.

2. Amaliyot davrida talaba har kuni reja bo'yicha kunlik bajargan ishlarini kundalik daftarga qisqacha yozib borishi kerak.

3. Talaba vaqti-vaqti bilan kundalik daftarni tekshirtirish uchun rahbarga taqdim etishi shart. Rahbar kundalik daftarni tekshirib, kamchilikni ko'rsatadi, navbatdagi topshiriqni beradi hamda talabaning faoliyati nazorat qilinayotganligini qayd etadi.

4. Amaliyot tugagach, talabaning kundalik daftari hisobot bilan birga amaliyot rahbari tomonidan tekshiriladi va xulosa yozib qo'yiladi.

5. Talaba amaliyot tugagach, to'ldirilgan kundalik daftarni hisobot bilan birgalikda kafedraga topshirishi shart.

6. Kundalik daftar to'ldirilmasa, amaliyot hisobga olinmaydi.

O'rganilgan hudud dialektologik pasporti

1. O'rganilgan hudud manzili: viloyat, tuman, qishloq yoki shaharcha, mahalla, ko'cha.

2. Axborotchi (sheva vakili)ning ismi va familiyasi, tug'ilgan yili, muchali, ma'lumoti, kasbi va ish joyi.

3. Material yozib olingan sana, oy va yil.

4. Material yozib oluvchi talabaning ismi va familiyasi.

Bir kishidan bir qancha material olish mumkin va bitta pasport to'ldirsa bo'ladi. Lekin ob'ekt o'zgarganda esa, albatta, yangi nomerdagi pasport to'ldirilishi shart.

NAMUNA:

Namangan viloyati
Yangiqo'rg'on tumani
Navkent qishlog'i
dialektologik pasporti

Axborotchi: Samatov Hasahboy Olimovich, 1946-yilda tug'ilgan, oily ma'lumotli, tarix o'qituvchisi bo'lib ishlagan, hozirda pensiyada.

Yashash manzili: Yangiqo'rg'on tumani, Navkent qishlog'i, Sangiston mahalla, Baxt ko'chasi, 46-uy.

Materiallar yozib olingan sana: 2 – 10-iyul, 2014-yil.

To'plovchi: Zarnigor Orifova, NamDU o'zbek tili yo'nalishi 2-kurs talabasi

Transkripsiya va transkripsion belgilar

Talabalar dialektologik amaliyot davomida materiallarni yozib olishda transkripsion yozuv sistemasidan foydalanadilar. Albatta, talabalar dars jarayonida transkripsiya, uning turlari, transkripsiyaning maqsad va vazifalari, undan foydalanish yo'llari haqida ma'lumot oladilar. Shunday bo'lsada, qo'llanmaga transkripsiya haqidagi ma'lumotni va transkripsion yozuv sistemasini kiritishni maqsadga muvofiq deb topdik. Shuningdek, qo'llanmadan talabalardan tashqari, boshqa qiziquvchilarning ham foydalanishi hisobga olindi.

Odatdagi yozuv hamma vaqt ham nutqda talaffuz qilingan tovushlarni beravermaydi. U yoki bu til (dialekt)ning fonetik xususiyatlarini talaffuzdagidek aniq yozish nafaqat ilmiy hamda amaliy maqsadni ham nazarda tutadi. So'zlarni to'g'ri talaffuz qilish uni to'g'ri tushunishni yengillashtiradi. Shuning uchun ham talaffuzga mos yozuv tizimining zaruriyati tug'iladi.

Talaffuz me'yorlarining buzilishi chetdan o'zlashgan so'zlarda ko'proq uchraydi, bu albatta, tabiiy holdir.

Har qanday til vakillarining artikulyatsion bazasi (odatdagi talaffuz me'yorlari) shakllangan bo'ladi. Talaffuz me'yorlarining buzilishi chetdan o'zlashgan so'zlarda ko'proq uchraydi. Albatta, buning tarixiy ildizlari mavjud. Boshqa (o'zlashgan) tildagi tovushlarni talaffuz qilish ma'lum darajada qiyinchilikni keltirib chiqaradi, ya'ni tovushlar talaffuzi farq qiladi. Chunki har qanday til vakili o'z tovush tizimining talaffuzini yoshligidanoq egallay boradi. O'zlashtirilgan so'zlarda talaffuz me'yorlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Natijada o'zlashgan so'zlar talaffuzida farq yuzaga keladi. Bulardan tashqari adabiy tilning yozuv me'yorlari talaffuz me'yorlariga barcha hollarda to'g'ri kelavermaydi.

U yoki bu tilning tovushlarini aniq ifodalash uchun shu tilning mavjud grafikasidan foydalanish to'g'ri kelmaydi. Tovushlarning grafik tasviri aksariyat hollarda ko'p ma'noli bo'ladi. Masalan, o'zbek tilidagi *qirqim*, (*qo'rqo'm*), *gilam* (*glem*), *bilak* (*blek*) so'zlaridagi *i* fonemasi uch xil talaffuz qilinadi va uchta tovush

hisoblanadi. Adabiy grafikada esa bitta belgi bilan ifodalanadi. Bir necha tovush tarkibini qiyosiy o'rganayotganda tovushlarning mos kelmasligi holati yanada yaqqol seziladi. Shuning uchun ham ma'lum til tovush tizimini talaffuzdagidek yozish uchun maxsus belgilardan foydalaniladi.

Nutq tovushlarini aniq ifodalash uchun ishlatiladigan fonetik yozuv **trankripsiya** deyiladi. Transkripsiya ikki holatda qo'llanadi: atoqli otlarni, tarixiy va geografik nomlarni ma'lum qoida asosida berishda; ma'lum til va uning shevalariga oid so'zlarni, shuningdek, chet tildan o'zlashgan so'zlarni ularning talaffuziga mos tarzda yozib olishda ishlatiladi.

Transkripsion yozuvda maxsus belgilardan foydalaniladi. U belgilar mavjud orfografik belgilar asosida tuziladi. Ammo transkripsiyaning tamoyillari imlo tamoyillaridan farq qiladi.

1. Fonetik transkripsiyada har bir belgi tovush ifodalashi kerak, tovush ifodalamaydigan belgi bo'lishi mumkin emas. Orfografiyada esa bunday emas: tovush ifodalamaydigan belgilar ham mavjud.

2. Fonetik transkripsiyada har bir belgi tovushlar birikmasini emas, alohida tovushni ifodalashi shart. Orfografiyada esa bunday emas, bir tovush ikki belgi bilan (ng) yoki uning aksi, ikki tovush bir belgi bilan (j - dj), (e - ye...) ifodalanadi. Shuning uchun ham transkripsion belgilar soni u asos qilib olingan alifbodagi belgilar sonidan ko'p bo'ladi.

3. Fonetik transkripsiyada har bir belgi (harf) hamma vaqt bir tovushni ifodalashi shart. Adabiy orfografiyada bunday bo'lishi shart emas. Masalan: «v» fonemasi *va'da, vint, visol* so'zlarida lab-tish fonemasini ifodalasa, *ov, yayov* so'zlarida lab-lab fonemasini ifodalaydi.

4. Fonetik transkripsiyada asosiy belgilardan tashqari diakritik (qo'shimcha) belgilar ham ishlatiladi. Bunday boshqa belgilar orfografiyada ham qo'llanadi. Lekin ular boshqa-boshqa maqsadda qo'llanadi va boshqa ma'no ifodalaydi.

Qo'llanish doirasi va grafik belgilariga qarab, fonetik transkripsiyaning ikkiga ajratish mumkin:

1. Lotin alifbosi asosida tuzilgan xalqaro fonetik yozuv.

2. Ma'lum til (o'zbek qozoq, rus, ukrain...) alifbolari asosida tuzilgan fonetik yozuv.

O'zbek tilshunosligida prof. A.K.Borovkov, prof. V.V.Reshetov, prof. Sh.Shoabdurahmonov, prof. X.Doniyorov va boshqa olimlarning transkripsiyalari mavjud.

Fonetik transkripsiya oldiga qo'yilgan vazifalariga ko'ra yana ikkiga ajratiladi:

1) fonetik transkripsiya;

2) fonematik yoki fonologik transkripsiya (fonetik va fonematik transkripsiya deb akademik L.V.Shcherba ajratgan. Shundan buyon bu atamalar keng qo'llanilib kelinmoqda). Ular fonema va uning nozik qirralari tushunchalari bilan aloqadordir.

Fonetik transkripsiya asosan dialektologik va folklor ishlarda qo'llanilib, ularda fonema, uning akustik va artikulyatsion nozikliklari ham ifodalanadi. Masalan, *кә, бәлә, қәпә* so'zlaridagi adabiy orfografik "o" fonemasi dialektlararo farqlangan holda qo'llaniladi, akustik va artikulyatsion nozikliklarga ega, ya'ni singarmonizm qonuniyatiga amal qilinmagan shevalarda chuqur til orqa "q" fonemasidan keyin ham (ad.orf. "a" talaffuz qilinaveradi: *əpələ*; singarmonizm qonuniyatlariga amal qilingan shevalarda esa *ə* (ad.orf.) "o" tarzida talaffuz qilinadi (*qarg'a*) va bu transkripsiyada o'z ifodasini topadi.

Fonematik transkripsiya muayyan til fonemalari tarkibini aniqlashda qo'llaniladi. So'zlarni bu usulda transkripsiya qilishda fonemaning hamma ottenkalari birlashtirilib bir belgi bilan beriladi. Masalan, o'zbek tilida *i* fonemasining hamma ko'rinishlari birlashtirilib, bir belgi - *i* bilan ifodalanadi. Transkripsiyaning bu turi fonemalar tarkibi aniq belgilangan tillarda qo'llanadi.

O'zbek tilining fonetik transkripsiyasida o'zbekcha alifbodagi harflardan foydalaniladi. Ammo alifbodagi harflari *e, ë, ю, я* transkripsion belgi sifatida ishtirok etmaydi.

Talabalar darslikdagi transkripsiya bilan tanish bo'lganligi, shu bo'yicha ma'lum ko'nikma hosil qilganligi uchun o'sha transkripsion yozuv sistemasining o'zini berishini lozim topdik.

UNLILAR. Transkripsiya unli lar quyidagi belgilar orqali ifodalanadi: ə, a, ɔ, e, ɪ, ʊ, ɤ, ʏ, ʉ, o, ɒ, ɛ, u. Bu 15 ta unli fonema quyida sxemada barcha ko'rinishlari bilan o'z ifodasini topgan

Tilning ko'tarilish o'miga ko'ra		Oldingi qator (til oldi)		Indifferent (oralig) tovush		Orqa qator (til orqa)	
Labning ishtirokiga ko'ra		Lablanmagan	Lablangan	Lablanmagan	Lablangan	Lablanmagan	Lablangan
Tilning ko'tarilish dara-jasiga ko'ra							
Yuqori ko'tarilish		ɪ	ʊ	ʊ		ɪ	ʏ
O'rta ko'tarilish	Yuqori o'rta	e	ɘ		<ɪ>		
	Quyi o'rta	ɛ	ʏ				y
Qo'yi ko'tarilish		ə			a	ɔ	o

Unli tovushlarni ifodalovchi belgilarning ma'no o'zgaliklari quyidagicha:

a – umumturkiy orqa qator, singarmonizmni saqlagan barcha o'zbek dialekt va shevalariga xos unli, singarmonizmni yo'qotgan shevalarda esa turli o'zgaliklarga ega. Baynalminal so'zlarda rus tilidagi «a» tovushiga mos keladi.

ə – oldingi qator, lablanmagan «a» unlisi: o'zbek dialekt va shevalarining ko'pchiligida uchraydi. Masalan: Andijon, Marg'ilon shevalarida *əkə, əpəəə*, Toshkent shevalarida *o kə* kabi.

ɔ ɒ – orqa qator, lablanmagan «a» tipidagi ochiq unli tovush «a» unlisidan taraqqiy qilib, bu tovush “o” lovchi o'zbek shevalarida keng tarqalgandir. Masalan: Toshkent, Marg'ildonda *ɔ ɒ, ɔ ɒ, ɔ ɒ* kabi. “a”lovchi o'zbek shevalarida bu tovush o'zbek adabiy tili va “o”lovchi grupp shevalari ta'sirida tarqala boshladi.

e – oldingi qator, lablanmagan, tor unli tovush bo'lib, o'zbek shevalarining ko'pchiligiga xos, o'zining akustik (eshitilish) va artikulyatsion xususiyatlariga ko'ra rus tilidagi undoshdan keyin

keladigan «e» yoki «eti» (bular) kabi soʻzlaridagi «e» tovushiga toʻgʻri keladi. Bu tovush oʻzbek orfografiyasida, soʻz boshida keladigan yolashgan unli «e» (ye) emas, balki «edi» (едъ) soʻzidan kabi yolashmagan unlidir. Masalan: Toshkent, Namangan, Margʻilon va boshqa shevalarda: ber, kel, er, endъ, echкъ kabi.

э – oldingi qator, lablanmagan ochiq «e» unlisi; bu unli eshitilishi jihatidan «e» ga yaqin boʻlsada uning ochiq varianti emas. Bu tovush baʼzan ruscha (этот soʻzidagi kabi) «e»ga mos keladi. Masalan, qipchoq shevalarida: экэвийэм, эчки kabi.

е – oldingi qator, lablanmagan, «e» unlisining ochiq varianti; eshitilish jihatidan esa «e» va «э» oʻrtasidagi tovush, masalan, Qoʻqonda kel, Xorazmda gel, Namaganda «nemәsъ», «beligʻ») kabi.

i – odatdagi turkiy oldingi qator, lablan-magan «i» unlisi. Singarmonizmli shevalarda fonema sifatida, singarmonizmni yoʻqotgan “o”lovchi shevalarda esa turli fonetik sharoitlarda uchraydi.

ы – indifferent lablanmagan tovush, u oʻzining kelib chiqishi jihatidan oldingi qator «i» va orqa qator «ы» unllarining birlashishidan hosil boʻlgan. «i» va «ы» oʻrtasidagi bu oraliq tovush shahar shevalarida va shahar tipidagi qishloq shevalarida mustaqil fonema sifatida uchraydi.

й – odatdagi turkiy orqa qator, lablanmagan «ы» unlisi; rus tilidagi «ы» ga qaraganda ancha chuqur talaffuz qilinadi. Singarmonizmli shevalarda mustaqil fonema sifatida, singarmonizmni yoʻqotgan shevalarda esa fonemaning varianti sifatida uchraydi.

ь – turkiy orqa qator indifferent «ь» unlisi; ammo «ы» tovushiga mos emas. Shahar shevalarida va shahar tipidagi shevalarda chuqur til orqa (q, gʻ, x) tovushlari bilan yondosh kelganda uchraydi. Masalan: Toshkent, Andijon, Margʻilon va shu kabi shevalarda qъz, qъr, qъsh, gʻъsh(t), mъx; Turkiston shevasida bu tovush Toshkent, Fargʻona shevalaridagi kabi «ь» fonemasining kombinator varianti emas, balki alohida fonema hisoblanadi: qъzlar, chъqtъ kabi.

u – odatdagi orqa qator, tor lablangan turkiy «u» unlisi.

ÿ – odatdagi oldingi qator, lablangan turkiy «u» unlisi. Bu tovush singarmonizmli o'zbek shevalarida hamda qardosh qozoq, qirg'iz va boshqa turkiy tillarda mustaqil fonema sifatida ishlatiladi. Singarmonizmni yo'qotgan o'zbek shevalarida «u» ga yaqin kombinator varianti mavjud, solishtiring: qul /kÿl/ va /kul/, /ko'l/ kabi.

o – odatdagi orqa qator, lablangan «o» unlisi, masalan, qipchoq shevasida: som, qо́лымы, qoy adabiy orfografik so'm, qo`lini, qo`y kabi.

Y – odatdagi old qator, lablangan turkiy «o» unlisi, masalan, qipchoq shevasida kYmur, kYr, sYylæ, kYz adabiy orfografik ko'mir, ko`r, so`zla, ko`z. Singarmonistik o'zbek shevalarida hamda qozoq, qirg'iz va boshqa turkiy tillarda «o`» unlisi alohida fonema sifatida ishlatiladi. Singarmonizmni yo'qotgan o'zbek shevalarida esa «o» ga yaqin kombinator variantlarga bor, solishtiring : qo`l, /qol/, /ko`l/, /kYl/ kabi.

ÿ - lablangan, indifferent tovush. Tilda «Ъ» kabi birlashish natijasida hosil bo'lgan o va o o'rtasidagi bu tovush singarmonizmni yo'qotgan shahar va shahar tipidagi shevalarda normal fonema hisoblanadi.

Transkripsion belgilar sistemasida qisqa va cho'ziq unlilar ham aks etgan bo'lib, ular quyidagi belgilar orqali ifodalanadi:

1. i/, /ɤ/, /ɛ/, /u/, /o`/-yuqori ko'tarilish unlilarining sifat jihatidan o'zgarishi (reduksiyaga uchrashi) Masalan, Toshkent, Marg`ilon: b (') r, b (') rovfizik nuqtai-nazardan «br», «brov» ga teng.

2. i; ɤ; y; ÿ (belgidan keyin bir nuqta) – ayrim pozitsion holatlarda hosil bo'ladigan sal cho'ziq unlilar.

3. i:, o`:, ɤ:, u:, o:, e: (belgidan keyin ikki nuqta) –ba'zi bir shevalarda uchraydigan (masalan, Qorabuloq: a:t, o:t, k':z kabi) birinchi darajali (birlamchi) cho'ziqlikni ifodalovchi yoki ko'pchilik o'zbek shevalarida uchraydigan (masalan, ɯə:p, ɯə:əp adabiy orfografik shahar kabi) biror tovush hisobiga bo'ladigan ikkinchi darajali cho'ziqlikni ifodalovchi cho'ziq unli tovushlar.

4. i : , ь ::, ь ::, y ::, u ::, (belgidan keyin bir necha ikki nuqta ko`p nuqta) fonetik o`ta cho`ziqlik.

Undoshlar. Transkripsiyada b, d, z, m, n, p, r, s, t, sh undoshlari adabiy talaffuzdagidek o`zgarishsiz ishlatiladi. Qolgan undoshlar quyidagicha qo`llanadi:

v – lab-lab «v» lab-tish «v» undosh uchrab qolsa alohida izohlash zarur.

y – ruscha «y»ga nisbatan siqiqrok talaffuz qilinadigan tovush.

g` – chuqur til orqa, frikativ (sirg`aluvchi) tovush .

g`* – chuqur til orqa, portlovchi tovush «g`» fonemasining kombinator varianti.

g – sayoz til orqa, portlovchi tovush.

g` – «g» dan ko`ra sayozroq tovush, yumshoq «g»

g! – til orqa, frikativ (sirg`aluvchi) tovush.

j – ruscha j tovushiga mos keluvchi tovush.

dj – affikrat (qorishiq) tovush.

q – chuqur til orqa, portlovchi tovush.

q – sayoz til orqa, portlovchi tovush.

k, – «k» dan ko`ra sayozroq tovush, yumshoq, «k».

l – til oldi «l» tovushi, yumshoq «l».

ng – til orqa burun tovushi.

ng, – sayoz, yumshoq «ng»

ng k – «k» qo`shib talaffuz qilinadigan «ng» tovushi.

f – lab-lab «f». Lab-tish varianti uchrasa alohida izohlash zarur.

ch – affikrat (qorishiq) tovush.

t – qipchoq shevalarida affikrat «ch» tovushi talaffuzida o`zini tashkil qilgan qismlar «t» va «sh» ga ajrab ketadi va shunday talaffuz qilinadi. Bunday vaqtda ikki belgi orqali (so`nggisi kichikroq) ifodalanadi.

x – chuqur til orqa sirg`aluvchi tovush.

x, – «x» dan ko`ra sayozroq sirg`aluvchi yumshoq «x».

k^x – chuqur til orqa, qorishiq tovush; «k» va «x» fonemalari kam farq qiladigan shevalarda uchraydi.

h – bo`g`iz tovushi. Nemis tilidagi “h” undoshi kabi talaffuz etiladi.

Ayrim diakritik belgilar

. – (bir nuqta), : (ikki nuqta), :: (bir necha ikki nuqta) – belgidan keyin qo'yilib , unlining cho'ziqligini ifodalaydi.

, – lenis «g» ning yoniga qo'yilib, talaffuzda portlashni ifodalaydi.

‘ – asper, «g» ning yoniga qo'yilib (g), tovushning sirg'aluvchi ekanligini ifodalaydi.

/ – akut, belgining o'ng tomoniga qo'yilib, (l) patalizatsiya (yumshoqlikni ko'rsatadi.

X – belgisi – birlashish (konvergentsiya) hodisasini ko'rsatish uchun tovushlar va formalar orasiga qo'yiladi.

> – belgisi – o'tish hodisasini ko'rsatadi.

< – belgisi – o'zgarish hodisasini ko'rsatadi.

// belgisi – tovushlarning almashinishi va ikki faktning parallel qo'llanishini ko'rsatadi.

() qavs – shart bo'lmagan, tushib qoladigan elementni ko'rsatadi.

[] o'rta qavs – umumiy tekstdan transkripsiya qilingan so'zlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatiladi.

Kursiv – turli darajadagi kuchsizlanish va reduksiyani ko'rsatadi.

Agar o'rganilayotgan shevada bulardan tashqari holatlar ham uchrasa, talabaning o'zi ma'lum shartli belgilar kiritishi mumkin.

Yuqorida o'zbek tilining fonetik yozuvi uchun zaruriy belgilar berildi. Bu yozuvda (transkripsiyada) o'zbek tili va uning shevalarida uchraydigan tovush nozikliklari o'z ifodasini topgan.

Har bir talaba (tadqiqotchi) muayyan sheva materialini yozib olishga kirishishdan oldin sheva haqida umumiy ma'lumotga ega bo'lishi kerak: o'rganilayotgan sheva o'zbek lahjalarining qaysi biriga qarashli /aloqador/, singarmonizm qonuniyatiga qay darajada amal qiladi va boshqalar. Shundan keyin transkripsion belgilarning qaysi biridan qanday foydalanish kerakligini aniqlash maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, qipchoq shevalari singarmonizm qonuniyatini qisman saqlagan shevalar sirasiga kiradi. Shuning uchun ham bunday shevalar unli tovushlarning qattiq va yumshoqligida, til oldi va til orqa qatorida, lablanish darajasida o'ziga xos xususiyatlarga ega. Talaba buni e'tiboridan qochirmasligi kerak. Bu fikrni singarmonizm qonuniyatini saqlagan barcha shevalarga nisbatan ham aytish mumkin. Shuni ham aytish kerakki, dialektal xarakterli xususiyatga ega bo'lgan shevalar singarmonistik shevalardir.

Быр пѡдшо брѡкѡн. Сѡйѡхѡткѡ ойнѡп чѡкѡканѡкѡн: чѡр-чѡп быр дѡрйѡ лѡбѡгѡ кѡлсѡ, быр эдѡм дѡрйѡгѡ хѡт йѡзѡп тѡшлѡйѡптѡ. Пѡдшо „ѡй бырѡдѡр. нѡмѡ йѡзѡп тѡшлутсѡн“, деп сурѡдѡ. У. эдѡм „ѡйттѡ“ хѡммѡнѡ тѡгдѡрѡнѡ йѡзѡп тѡшлуттѡмѡн“ дѡдѡ. Йѡмѡсѡ, мѡнѡ кѡзѡтѡммѡ тѡгдѡрѡнѡ кѡруп бѡрчѡ“ дѡдѡ. „Ендѡ йѡзѡп тѡшлѡдѡм, ешѡгѡгѡздѡ тѡшлѡп йѡргѡн кѡлдѡ екѡн“. Пѡдшо хѡнѡ болдѡ; ойѡгѡ қайтѡп бѡрсѡ, кѡл сѡвчѡ чѡқѡрѡп туруптѡ. Пѡдшо хѡйрѡн болдѡ. Вѡзѡрлѡрнѡ чѡқѡрдѡ „шундѡй гѡп, нѡмѡ қѡлсѡк болѡркѡн“, деп мѡслѡхѡт қѡлдѡ. Вѡзѡрлѡр ѡйттѡ „ѡзынгѡз пѡдшо болсѡнгѡзу, қѡзынгѡз шул кѡлгѡ лѡйѡқмѡ?“ „Нѡмѡ қѡлсѡк болѡдѡ“ деп пѡдшо сурѡдѡ. „Буиѡ быр қѡйѡн тѡшкѡ йѡбарѡп йѡқ қѡлѡвѡрѡмѡз“ дѡдѡ Шу бѡлѡн кѡллѡ чѡқѡрдѡ. „Йѡттѡнчѡ эсмѡндѡн ѡйиѡ дѡгѡнѡ элѡп кѡлѡсѡн унѡйкѡйѡн қѡзѡмнѡ бѡрѡмѡп“ дѡдѡ. Шу бѡлѡн кѡл йѡттѡнчѡ эсмѡнгѡ қѡрап йѡрѡ бѡнлѡдѡ. Йѡл йѡрсѡйѡм мѡл йѡруп быр жѡйгѡ йѡтѡп бѡрдѡ. Шу йѡрдѡ хѡзѡр учрѡдѡ. „ѡй кѡл, қайгѡ кѡтѡссѡн“, деп сурѡдѡ. Кѡл ѡйттѡкѡ, „Йѡттѡнчѡ эсмѡнгѡ ѡйиѡ дѡгѡгѡ кѡтуттѡмѡн“. Хѡзѡр ѡйттѡ „сѡн бѡрѡп турѡгѡн, мѡн бѡрѡмѡн“ дѡдѡ. Шу бѡлѡн кѡл дѡрйѡ лѡвѡгѡ йѡттѡ. эрѡкѡсѡдѡн Хѡзѡр хѡм учрѡп қѡлдѡ. Кѡпруктѡн отѡп, кѡтѡссѡ, кѡпруктѡн эвѡз чѡкѡтѡ „ѡй Хѡзѡр, мѡн бутун бѡлѡхлѡрнѡ пѡдшо сѡ эдѡм, йѡз йѡлдѡн бѡрѡн шу йѡрдѡ тохтѡп қѡлгѡнмѡн, йѡ уйѡққѡ йѡ буйѡққѡ кѡтѡлмѡймѡн, пѡрѡштѡлѡрдѡн сѡрѡп тушчѡ, гуѡнѡхѡм нѡмѡ“ дѡдѡ. Хѡзѡр „хѡп“ дѡдѡ. Кѡлгѡ ѡйттѡ Хѡзѡр, „кѡл бѡйнумгѡ мѡн“ дѡдѡ. Кѡл бѡйнѡгѡ мѡндѡ Кѡзуиѡнѡ йѡм“ дѡдѡ. Кѡзѡнѡ йѡмдѡ, „ѡш“ дѡдѡ, кѡзѡнѡ эшсѡ (ѡчсѡ), йѡттѡнчѡ эсмѡндѡ, ѡйиѡ элдѡдѡ туруптѡ. ѡйиѡ дѡгѡдѡн бѡттѡ шѡшѡгѡ элдѡ.

Кѡгѡн Хѡзѡр пѡрѡштѡдѡн сѡрадѡ „бѡлѡгѡнѡ гуѡнѡхѡ нѡмѡ“, деп. Пѡрѡштѡ ѡйттѡ „бѡлѡгѡнѡ эгѡздѡ мѡхѡрѡгѡйѡ бѡр, кѡллѡ мѡрсѡсѡгѡ тушкѡн, шунѡ бѡрсѡ йѡруп кѡтѡдѡ“, деп ѡйттѡ. Кѡгѡн Хѡзѡр кѡлнѡ ѡйттѡ „кѡл, йѡлкѡмгѡ мѡн“, дѡдѡ. Кѡл Хѡзѡрнѡ йѡлкѡсѡгѡ мѡндѡ. „Кѡзынгѡнѡ йѡм“. дѡдѡ, кѡзѡнѡ йѡмдѡ. Быр мѡнѡттѡй кѡгѡн, „ѡш“, дѡдѡ, эчсѡ дѡйрѡ лѡбѡдѡ туруптѡ. Бѡлѡқ сѡрадѡ „гуѡнѡхѡм нѡмѡ“, деп. „Тѡлѡнѡнѡ тѡгѡдѡ мѡхѡрѡгѡйѡ бѡр екѡн, шунѡ кѡлгѡ бѡрсѡнѡг, йѡруп кѡтѡсѡн“, дѡдѡ. Шу бѡлѡн бѡлѡқ кѡлгѡ ѡйттѡ „ѡзѡзынгѡнѡ эч“, деп, мѡхѡрѡгѡйѡнѡ тѡлѡнѡ тѡгѡгѡ сѡлѡн қѡйдѡ. Шу бѡлѡн бѡлѡқ йѡрун кѡттѡ. Кѡл мѡхѡрѡгѡйѡдѡн сурѡдѡ „мѡн хѡзѡр ѡзѡмнѡ шѡхѡрѡмдѡ болѡйѡн“, дѡдѡ. Шу бѡлѡн кѡзѡнѡ йѡмуп эчгунчѡ ѡзѡнѡ шѡхѡрѡдѡ болуп қѡлдѡ. Пѡдшо нѡнѡ ойѡгѡ бѡрдѡ,

Sheva materiallarini to'plash uchun topshiriq va savolnomalar

Shevalarning fonetik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha topshiriqlar:

1. Unli tovushlar va ularning o'ziga xos variantlarini aniqlash.

2. Unli tovushlar va uning variantlarini transkripsiyada yozib chiqish.

3. Unli tovushlar va uning variantlarini ishlatilishiga misollar berish.

4. Shevada qo'llanuvchi o'ziga xos undosh tovushlarni aniqlash.

5. Undoshlarning talaffuzda birining ikkinchisiga almashishi (bir undoshning boshqasiga o'tishi).

6. Undoshlarning tushib qolishi.

7. Unlilarning birining ikkinchisiga o'tishi.

8. Unli va undosh tovushlar bilan bog'liq fonetik hodisalarni aniqlash:

– proteza hodisasi;

– epiteza hodisasi;

– epenteza hodisasi;

– sinkopa hodisasi;

– apakopa hodisasi;

– reduksiya hodisasi;

– eliziya hodisasi;

– assimilyatsiya va uning ko'rinishlari;

– dissimilyatsiya;

– umlaut;

– singarmonizm hodisasi;

– unlilardagi cho'ziqlik.

Shevalarning leksik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha savol va topshiriqlar:

1. Shevada o'zidan katta notanishlarga nima deb murojaat qilinadi:

- ayollarga;
- erkaklarga.

2. O'zidan kichik notanishlarga nima deb murojaat qilinadi:

- singillarga;
- ukalarga.

3. O'z ota-onasini, qarindosh-urug'larini nima deb chaqiradi:

- onasini;
- otasini;
- onaning ukasi va akasini;
- otaning ukasi va akasini;
- onaning opasi va singlisini;
- otaning opasi va singlisini;
- onaning otasi va onasini;
- otaning otasi va onasini;
- opa-singillarning farzandlari bir-birlarini;
- aka-ukalarning farzandlari bir-birlarini.
- opasining erini nima deb chaqiradi?

4. Qaynota, qaynona kelinini nima deb chaqiradi?

5. Non yopish jarayonida qo'llaniladigan predmet va jarayon nomlari.

6. Ovqat pishirishda qo'llaniladigan predmet va jarayon nomlari.

7. Ovqat nomlari.

8. Hashoratlar va gazandalarning nomlari.

9. Qushlar, parrandalar va ularning mahsulotlari nomlari.

10. Mevali va mevasiz daraxtlarning nomi.

11. Sabzavot va poliz mahsulotlari nomlari.

12. Sheva vakillari kasb-kori bilan bog'liq bo'lgan 20 so'zni yozing va izohlab bering.

Shevalarning morfologik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha topshiriqlar:

1. Shevada qo'llanuvchi kelishik affikslarini aniqlash.
2. Kelishiklarning funksional almashinib qo'llanishi.
3. Shevada qo'llanuvchi egalik affikslarini aniqlash.
4. Egalik affikslarining qo'llanishi va o'ziga xos xususiyatlari.
5. Shevada ko'plik ifodalanishi.
6. Ko'plik affiksining o'ziga xos variantlari.
7. Shevada qo'llanuvchi olmoshlarning o'ziga xos variantlarining aniqlash:
 - a) kishilik olmoshlari;
 - b) ko'rsatish olmoshlari;
 - d) so'roq olmoshlari;
 - e) belgilash olmoshlari;
 - f) bo'lishsizlik olmoshlari;
 - g) gumon olmoshlari.
8. Shevada son turkumidagi so'zlarning qo'llanishi.
9. Shevadagi qo'llanuvchi o'ziga xos belgi ifodalovchi so'zlar.
10. Belgi bildiruvchi so'zlarda daraja ifodalanishining o'ziga xos ko'rinishlari.
11. Fe'llarda zamon ifodalanishining o'ziga xos ko'rinishlarini aniqlash:
 - a) o'tgan zamon shakllari;
 - b) hozirgi zamon shakllari;
 - d) kelasi zamon shakllari.
12. Fe'llardagi mayl shakllarining o'ziga xos variantlari.
13. Shaxs-son affikslarining shevada qo'llanuvchi variantlarini aniqlash.
14. Shevada bo'lishsizlik ifodalanishi.
15. Shevadagi sifatdosh shakllarini aniqlash.
16. Shevadagi ravishdosh shakllarini aniqlash.

17. Harakat nomi shakllarining ishlatilishi.
18. Shevada qo'llanuvchi yordamchi so'z turkumidagi so'zlarni aniqlash:
 - a) ko'makchilar;
 - b) bog'lovchilar;
 - d) yuklamalar.
19. Shevada ishlatiladigan undov so'zlarni aniqlash.
20. Shevada qo'llanadigan taqlid so'zlar.
21. Shevada qanday modal so'zlardan foydalaniladi?

Shevaning sintaktik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha topshiriqlar:

1. Shevada qo'llanuvchi moslashuvli birikmaning o'ziga xos ko'rinishlari.
2. Shevada qo'llanuvchi o'ziga xos boshqaruvli birikmalar.
3. Shevada qo'llanuvchi o'ziga xos bitishuvli birikmalar.
4. Shevada so'roq gaplar qanday vositalar bilan hosil qilinadi?
5. Shevada buyruq gaplarning hosil bo'lishi.
6. Shevada his-hayajon gaplarning hosil bo'lishi.
7. Shevada gapning tuzilishiga ko'ra qanday turlaridan ko'proq foydalaniladi?

Joy nomlari va urug'-qabila nomlarini, antroponimlarni o'rganish bo'yicha savolnoma

1. Siz yashayotgan qishloq nima uchun bunday ataladi? Boshqa nomlari ham bo'lganmi?

2. Siz yashayotgan mahalla nima uchun bunday ataladi? Avallari ham nomi shunday bo'lganmi yoki o'zgardimi?

3. Siz yashayotgan ko'cha nima uchun bunday ataladi?

4. Siz yashayotgan qishloq, mahalla, ko'chaning nomlanishi, tarixi haqida kitoblar, maqolalar yozilganmi? Qayerda nashr etilgan yoki e'lon qilingan?

5. Qo'shni qishloq, mahalla va ko'chalarning nomlanishi haqida nimalarni bilasiz?

6. Siz yashayotgan hududda qaysi urug' vakillari yashaydilar? Siz qaysi urug'ga mansubsiz?

7. O'zingiz mansub urug'ning nomlanishi, tarixi, tarqalishi xususida nimalarni bilasiz?

8. O'z shajarangizni aytib bera olasizmi?

9. Qishloq va mahallangizda kishilarga laqab qo'yish kuzatiladimi? Agar laqablar bo'lsa, ularning yuzaga kelishi haqida nimalarni bilasiz?

10. Qishlog'ingizda yana qanday joy nomlari bor?

11. Sizga kim bunday ism qo'ygan? Ismingizning ma'nolarini bilasizmi?

12. Qishloq va mahallangizda ko'proq qanday kishi ismlari uchraydi? Nima uchun?

13. Qishloq va mahallangizda kam uchraydigan, boshqa hududlarga tarqalmagan, uchramaydigan kishi ismlari ham bormi?

Foydalanish uchun adabiyotlar

1. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ // Адолатли жамият сари. – Тошкент: Ўзбекистон, 1998.
2. Алиев А.Ю. Ўзбек диалектологиясидан материаллар (Наманган шевалари). – Тошкент: Фан, 1974. – 220 б.
3. Алиев А.Ю. Наманган группа шевалари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1969. – № 5.
4. Алиев А.Ю. Наманган топонимиясидан // Ўзбек тилшунослиги масалалари. – Тошкент: Фан, 1984. – Б.3-9.
5. Алиев А. Ю., Назаров К. Н. Ўзбек тилининг маҳаллий шевалари бўйича материал тўпловчилар учун методик қўлланма. – Тошкент, 1976.
6. Бегалиев М.Қ. Ўзбек тилининг Қорабулоқ шеваси лексикаси. – Тошкент: Iqtisod-Moliya, 2007.
7. Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган, 2006. – 103 б.
8. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент, 1991.
9. Дониёров Х. Қипчоқ диалектларининг лексикаси. – Тошкент: Фан, 1979.
10. Иброҳимов С. Фарғона шеваларининг касб-хунар лексикаси. – Тошкент, 1973.
11. Ишаев А. Ўзбек диалектал лексикографияси. – Тошкент: Фан, 1990.
12. Заки Валидий. Ўзбек уруғлари // Ўзбегим. – Тошкент, 1992. – Б.110-113.
13. Заҳириддин Муҳаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Шарқ, 2002. – 336 б. + 32 б. Зарварақ.
14. Ибрат. Фарғона тарихи («Мерос» туркуми. Масъул муҳаррир, сўз боши муаллифи: Хуршид Даврон). – Тошкент: Камалак, 1991. – 327 б.
15. Ишаев А. Қорақалпоғистондаги ўзбек шевалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 175 б.

16. Маҳмуд Кошғарий. Девону луғотит турк. 3 томлик. – Тошкент: Фан, 1960. – I т. – 499 б.
17. Муродова Н. Ўзбек адабий тили ва шевалар лексикасининг қиёсий тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2005.
18. Муҳаммаджонов Қ. Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1983.
19. Назаров К., Ғуломов Ё. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Университет, 1993.
20. Namangan viloyati. Siyosiy-ma'muriy ma'lumotnoma karta. – Toshkent: Yergeodezkadastr, 2006.
21. Наманган туманининг ўтмиши ва бугуни. – Тошкент: Университет, 1996. – 152 б.
22. Наманганская область: Справочная политико-админи-стративная карта. – Ташкент: Узгеодезкадастр, 1996.
23. Нафасов Т. Қашқадарё ўзбек халқ сўзлари. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – 466 б.
24. Ражабов Н. Ўзбек шевашунослиги. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 304 б.
25. Ражабов Н. Ўзбек халқ шеваларида феълнинг морфологик тузилиши. – Тошкент: Фан, 1990.
26. Решетов В. В., Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978.
27. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000.
28. Саттаров У. Топонимик афсоналар таснифи хусусида айрим мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1999, №3. – Б.50-53.
29. Саттаров У. Топонимик ривоятларнинг ўзига хос хусусиятлари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2000, №6. – Б.36-39.
30. Тулаков С. Наманган шаҳар шеваси лексикасидан материаллар // Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1966.

31. Турдалиев Б., Нуъмонов Т., Ҳайдаров А. Наманган вилояти топонимларидан материаллар. – Наманган, 1995. – 1-к. – 122 б.
32. Туропова М. Ўзбек шевалари синтаксиси. – Тошкент: Фан, 1984.
33. Тўйчибоев Б., Ҳасанов Б. Ўзбек диалектологияси. – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004.
34. Саидова М. Наманган шеваларидаги қариндошлик терминларининг лексик-семантик таҳлили. – Тошкент, 1995.
35. Узоқов Ё., Алиев А. Наманган топонимикасидан // Ўзбек тилшунослиги ва адабиётшунослиги масалалари. – Тошкент: Фан, 1968. – Б.87-88.
36. Улуқов Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лосоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008. – 192 б.
37. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991.
38. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981.
39. Шоимова Н. Қашқадарё ўзбек қипчоқ шевалари лексикаси. – Қарши: Насаф, 2000.
40. Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991.
41. Ўзбек халқ шеваларининг луғати. – Тошкент: Фан, 1971.
42. Ўзбек халқ шевалари морфологияси. – Тошкент: Фан, 1984.
43. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. I – 680 б.; II – 672 б.; III – 688 б.; – Тошкент, 2008. IV – 608 б.; V – 592 б.
44. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002-2006 – 1-12- ж.
45. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002.

MUNDARIJA

Kirish.....	3
Dialektologik malakaviy amaliyotning asosiy maqsad va vazifalari.....	4
Dialektologik malakaviy amaliyot o'tkazishda universitet, dekanat hamda guruh rahbarlarining vazifalari.....	5
Dialektologik malakaviy amaliyotni o'tkazish yuzasidan tavsiyalar.....	6
Dialektologik amaliyot bo'yicha rahbar o'qituvchilarining burch va vazifalari.....	9
Malakaviy amaliyot bo'yicha talabalarni baholash mezonlari.....	10
Dialektologik malakaviy amaliyotni yakunlash va hujjatlarni tayyorlash bo'yicha ilova hamda namunalar.....	12
Transkripsiya va transkripsion belgilar.....	14
Sheva materiallarini to'plash uchun topshiriq va savolnomalar.....	24
Foydalanish uchun adabiyotlar.....	29

